



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 22-yanvar

24-6-0-Q/25

Namangan viloyati hokimligi

### **2025-yil 1-yanvar holatiga Namangan viloyatida Yer resurslarining holati bo‘yicha milliy hisobotini tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktyabrdagi PQ-405-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-oktyabrdagi “Er resurslarining holati bo‘yicha milliy hisobotni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 578-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Er kodeksi” 5-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Davlat kadastrlar palatasi Namangan viloyat boshqarmasining 2024-yil 25 dekabrdagi 8808-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Namangan viloyatidagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo‘yicha yer kadastriga oid ma‘lumotlar 1-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyatida mavjud yerlarning yer turlari bo‘yicha taqsimotiga oid yer kadastr ma‘lumotlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman (shahar) hokimliklari, Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (M.Tursunbaev), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining birinchi o‘rinbosari (N.Xudoyberdiev), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (N.Kaimov) bilan birgalikda fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, dehqon xo‘jaliklari, dala tomorqa egalarining soni, ular ixtiyoridagi yer maydonlari, boshqa barcha yerdan foydalanuvchilarning belgilangan tartibda yagona reestrga kiritilishini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (M.Tursunbaev):

Viloyatdagi barcha yerdan foydalanuvchilarning yer fondidagi 2024-yil davomida yer tuzish, yer ajratish va yerni zaxiraga olish jarayonida bo'lgan barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda 2025-yil 1-yanvar holatidagi yer hisobotini tuzishda tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni maxsus ishlab-chiqilgan UZKAD elektron dasturiga kiritish choralarini ko'rsin.

5. Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiev), Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (N.Kaimov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda fermer xo'jaliklari hamda boshqa yerdan foydalanuvchi tashkilot, korxonalar, muassasalarning yordamchi xo'jaliklari tasarrufidagi yerlardan samarali foydalanishini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi ekinlarini reja asosida ekilishini kuzatib, haqiqiy ekilgan maydonlarni aniqlash uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda doimiy monitoring o'tkazib borsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Xakimov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi**



**Sh. Abdurazakov**

Namangan viloyat hokimining  
2025-yil 22-yanvardagi  
24-6-0-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

**Namangan viloyatida mavjud yer egalari va yerdan  
foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo'yicha yer  
kadastriga oid**

**MA'LUMOT**

<b>Toifa</b>	<b>Er egalari va turlari</b>	<b>Jami yer maydoni</b>	<b>Shundan sug'oriladigan yerlar</b>
	Viloyatga qarashli	448681	258919
	Boshqa vazirliklar, tashkilotlar va korxonalariga qarashli	37485	18762
	Qishloq xo'jaligi ilmiy-tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlariga qarashli	1997	1686
	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalari yerlari	358	265
1	Jami qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlarning foydalanadigan yerlar	488522	279631
	shundan:		
	ijaradagi fermer xo'jaliklari yerlari	212594	165921
2	Aholi yashash joylari	17544	5204
3	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar	58557	2434
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	304	151
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	2540	11
6	O'rmon fondi yerlari	152435	3161
7	Gidrotexnika va boshqa suv xo'jalik inshootlari yerlari	23394	1040
8	Zaxira yerlar		
	<b>Jami yerlar</b>	<b>743294</b>	<b>291635</b>
	Tuman ma'muriy chegaralaridan tashqari foydalanadigan yerlar	22635	10134
	Boshqa tuman, viloyat, respublikalar foydalanadigan yerlar	23286	10563
	Tuman ma'muriy chegaralaridagi yerlar	743945	290115



Namangan viloyat hokimining  
2025-yil 22-yanvardagi  
24-6-0-Q/25-son qaroriga  
2-ilova

**Namangan viloyatida mavjud yerlarning yer turlari bo'yicha taqsimotiga oid  
yer kadastri**

**MA'LUMOTLARI**

<b>№</b>	<b>Er turlari bo'yicha taqsimoti</b>	<b>Jami yer maydoni</b>	<b>Shundan sug'oriladigan yerlar</b>
1	Jami ekin yerlari	185527,5	185527,5
	shundan holati yomon yerlar	19193	19193
2	Jami ko'p yillik daraxtzorlar	50249,5	50249,5
	shundan: bog'lar	36727	36727
	uzumzorlar	8274	8274
	tutzorlar	4995	4995
	boshqa mevali ko'chatzorlar	252	252
3	Bo'z yerlar	2646,5	2646,5
4	Yaylovlar	159775,5	
5	Qishloq xo'jalik yer turlarining jami	398199	238423
6	Tomorqa xo'jaliklar soni	583320	583320
	Er maydoni	61339	48196
	shundan: ekin yeri	35272	35272
	bog' va mevali daraxtzorlar	12924	12924
	imorat bilan band yerlar	13132	
7	Bog'dorchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari	108	108
8	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	713	
9	Jami o'rmonzorlar	22539	5687
	Shundan terakzorlar	3044	3044
10	Boshqa yerlar	260395,5	
11	Jami foydalanishdagi yerlar	743294	292416